



## MICROSOFT ACCESS MA'LUMOTLARNI BOSHQARISH TIZIMIDA SHAKLLAR BILAN ISHLASH

*Tojimamatov Israiljon Nurmamatovich*

*Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi*

[israiltojimatov@gmail.com](mailto:israiltojimatov@gmail.com)

*Ibroximova Gulnoza Abrorjon qizi*

*Farg'ona davlat universiteti 4- kurs talabasi*

[ibragimovagulnoza0497@gmail.com](mailto:ibragimovagulnoza0497@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Microsoft Access ma'lumotlarni boshqarish tizimida shakllar (formalar) bilan ishlash jarayoni yoritilgan. Shakllar foydalanuvchi bilan ma'lumotlar bazasi o'rtasidagi qulay muloqotni ta'minlaydigan vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada shakllarning turlari, ularni yaratish bosqichlari, dizayn oynasi imkoniyatlari hamda ularni amaliyotda qo'llash usullari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shuningdek, foydalanuvchilarning ma'lumotlarni tezkor kiritish, tahrirlash va ko'rish jarayonlarini soddalashtirishda shakllarning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar.** Microsoft Access, ma'lumotlar bazasi, shakl, forma, ma'lumotlarni boshqarish tizimi, foydalanuvchi interfeysi, ma'lumotlarni kiritish, tahrirlash, dizayn oynasi.

**Abstract.** This article discusses the process of working with forms in the Microsoft Access data management system. Forms are important as a means of providing convenient communication between the user and the database. The article provides detailed information about the types of forms, the stages of their creation, the capabilities of the design window, and methods of their application in practice. The role and importance of forms in simplifying the processes of quick data entry, editing, and viewing by users is also analyzed.



**Keywords.** *Microsoft Access, database, form, form, data management system, user interface, data entry, editing, design window.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается процесс работы с формами в системе управления данными Microsoft Access. Формы играют важную роль в обеспечении удобного взаимодействия пользователя с базой данных. В статье подробно рассматриваются типы форм, этапы их создания, возможности окна конструктора и способы их применения на практике. Также анализируется роль и значение форм в упрощении процессов быстрого ввода, редактирования и просмотра данных пользователями.*

**Ключевые слова.** *Microsoft Access, база данных, форма, система управления данными, пользовательский интерфейс, ввод данных, редактирование, окно конструктора.*

## **Kirish.**

**Microsoft Access** dasturidan ma'lumotlar bazasini yaratishda foydalaniladi. Microsoft Office keng tarqalgan ofis ishlarini avtomatlashtiruvchi dasturlar paketidir. Uning tarkibiga kiruvchi Access nomli dasturlar majmuasi hozirda MOBT sifatida keng o'rganilmoqda va qo'llanilmoqda. MOning dastlabki oynasi soddaligi va tushunarli bilan ajralib turadi. Undagi oltita ilova, dastur ishlaydigan olti obyektini tasvirlaydi. Bular jadvallar, so'rovlar, shakllar, hisobotlar, makroslar va modullar.

Shakllar –bu jadval (table) yoki so'rov (query) ma'lumotlarini foydalanuvchiga chiroyli, tushunarli tartibda ko'rsatish va oson tahrirlash uchun yaratilgan oynadir. Ma'lumotlarni kiritishda formadan foydalanish ko'p qulayliklarni beradi. Accessda yaratilgan har bir forma ma'lumotlarni kiritish uchun maxsus maydonlar, Oddiy tanlash tugmachalari va buyruq tugmachalarini o'z ichiga oladi.

Forma strukturasi bo'limlardan tashkil topgan bo'lib, har bir bo'lim o'z ichiga boshqarish elementlarini oladi. Eng oddiy forma bo'limlari bilan tanishish



uchun Master yordamida tuzilgan formani Konstruktor rejimida ko'rish mumkin. Buning uchun Accessning boshqarish panelidan Vid buyrug'ini berish kerak. Bu holda forma strukturasi uchta bo'lim ko'rinadi:

1. Forma sarlavhasi
2. Ma'lumotlar maydoni
3. Forma izohi


Ma'lumotlar maydoni boshqarish elementlarini o'z ichiga oladi. Elementlar panelida sarlavhani tuzish uchun maxsus boshqarish elementi mavjud bo'lib unga "Nadpis" deyiladi. Agar bu boshqarish elementi sichqonchada bir marta chiqillatilsa, formaning sarlavhasi pastida matn kiritish ramkasi paydo bo'ladi. Unda istalgan matn kiritish mumkin.

Forma tuzishda Access foydalanuvchiga formaning bir qator usullarini taklif etadi:

1. Konstruktor - mustaqil ravishda yangi forma tuzish.
2. Master - tanlangan maydonlar asosida avtomatik ravishda formalar tuzish.
3. Avtoforma ustun ko'rinishda - maydonlarni bitta ustunga joylashtirgan holda avtomatik ravishda forma tuzish
4. Avtoforma lentasimon - maydonlarni avtomatik lentasimon ravishda joylashtirgan holda forma tuzish.
5. Avtoforma jadvalli - maydonlardan avtomatik ravishda jadval shaklda forma tuzish.
6. Diagramma - diagrammalar ko'rinishida formalar tuzish


### **Konstruktor yordamida forma yaratish.**

Forma tuzish uchun berilganlar bazasining asosiy oynasidan Создание bo'limiga o'tiladi va forma muloqot oynasi paydo bo'ladi va u yerdan forma tuzish usullaridan biri tanlanadi. 1-rasm.




1-rasm. Microsoft Access muloqot oynasi.

Formani Konstruktor orqali tuzamiz, bu jarayon quyidagicha bajariladi:. Ekranda paydo bo'lgan muloqot oynasidan forma tuzishning Konstruktor rejimi tanlanadi va quyidagicha oyna paydo bo'ladi. 2-rasm.




2-rasm. Konstruktor yordamida forma yaratish oynasi

Ochilgan oynamizga sarlavha qo'yib olamiz. Buning uchun yuqoridagi Заголовок bandiga bosamiz va formamizga nom beramiz. 3-rasm.




3-rasm. Konstruktor oynasiga nom berish.

Oynamizga maydonlarni qo'shamiz. Buning uchun Konstruktor form bo'limidan Добавить поля bandiga bir marta bosib, Показать все таблицы buyrug'ini tanlaymiz va o'zimizga kerakli jadvalni tanlaymiz. 4-rasm.




4-rasm. Konstruktor oynasiga maydonlar qo'shish.

So'ngra, ketma-ketlikdagi maydonlarni qo'shib chiqamiz, sichqonchanning chap tugmachasini tez-tez 2 marta bosish orqali. Maydon nomlari birlashtiriladi. 5-rasm.




5-rasm. Oynamizga maydon nomlarini qo'shish.

Endigi qiladigan ishimiz boshqaruv tugmalarini qo'shish. Yuqorida joylashgan Кнопка tugmasi ustiga bosib, kerakli joyga tugmachani qo'yib olamiz. Quyidagi oyna hosil bo'ladi. 6-rasm.




6-rasm. Formamizga boshqaruv tugmachasini qo'shish.

Bu tugmachaga nom berishimiz ham rasm qo'yishimiz ham mumkin. Предыдущая запись ni tanlab Далее ni bosamiz va Текст ni tanlaymiz, so'ngra Готово tugmasini bosamiz. Quyidagi oyna hosil bo'ladi. Tugmamizga oldinga deb nom berdik. 7-rasm.




7-rasm. Tugmachaga nom berilgandagi holat.

Qolgan tugmachalarni ham shu tariqa kirgizib olamiz. 8-rasm.




8-rasm. Barcha tugmacha qo'shilgan holat.

Ushbu ko'rinishdagi oynani saqlaymiz va Formamizga nom beramiz. Oynani yopib formani ishga tushiramiz. 9-rasm.



9-rasm. Yaratilgan konstruktor forma.

Yangi dori nomini yozib tekshiramiz: 10- rasm.



10-rasm. Formani tekshirish.

Formamiz ishladi. 11- rasm.

Код	Nomi	Turi	Narxi	Miqdor	Amal_mudda	Щелкните для добавления
1	Paratsetamol		1 200,00 P	150	01.04.2026	
2	Analgin		25 000,00 P	50	30.12.2025	
3	Ibuprofen		8 000,00 P	200	15.08.2026	
4	Nolgrip		1 300,00 P	100	16.10.2025	
5	Gripgo		300,00 P	340	17.10.2025	
6	Anzibel		6 000,00 P	120	18.10.2025	
7	Omeprazol		10 000,00 P	130	22.10.2025	
8	Larotadin		49 900,00 P	200	26.10.2025	
9	Amoksiklav		6 330,00 P	250	30.10.2025	
10	Suprastin		436 300,00 P	120	21.11.2025	
11	Smekta	Ukol	45 800,00 P	150	31.10.2025	
12	No-shpa	Parashok	4 600,00 P	170	30.10.2025	
13	Kyupen	Maz	6 300,00 P	190	24.10.2025	
14	Mezim Forte	Sirop	5 600,00 P	50	27.10.2025	
15	Bolnol	Tabletka	2 360,00 P	100	30.11.2025	
16	Yodafol		1 800,00 P	1	12.12.2025	
19	dyufaston		50 000,00 P	234	11.02.2026	
*	(№)		0,00 P	0		

11-rasm. Formaning ishlagan holati.

## Xulosa

Microsoft Access dasturida shakllar bilan ishlash ma'lumotlarni boshqarish jarayonini soddalashtiradi hamda foydalanuvchi uchun qulay interfeys yaratadi. Shakllar yordamida ma'lumotlarni kiritish, tahrirlash va ko'rish jarayoni ancha tez va samarali amalga oshiriladi. Ular ma'lumotlar bazasi tuzilmasini yanada tushunarli qiladi va xatoliklarning oldini olishga yordam beradi. Shuningdek, shakllardan foydalanish o'qitish jarayonida ham, amaliy dasturlash loyihalarida ham katta ahamiyatga ega. Shu bois, Microsoft Access dasturida shakllarni o'rganish va ularni to'g'ri qo'llay bilish zamonaviy axborot texnologiyalari yo'nalishida muhim ko'nikma hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Karimov A. "Axborot tizimlari va texnologiyalari", Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
2. Jo'rayev B., To'xtayev O. "Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari", Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2021.
3. Microsoft Corporation. "Access Help and Learning." <https://support.microsoft.com/access>



4. Tashpulatov R. "Informatika va axborot texnologiyalari asoslari", Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2020.
5. Nurmatova N. "Microsoft Office dasturlar to'plami bo'yicha amaliy qo'llanma", Toshkent, 2023.
6. Karimov A. — "SQL Serverda ma'lumotlar bazalarini loyihalash va boshqarish (o'quv qo'llanma)".
7. Tojimamatov, Israil, and Xusanboy Abduvaliyev. "KO 'P FOYDALANUVCHILI BBVT ARXITEKTURASI." *Инновационные исследования в науке* 4.5 (2025): 16-22.
8. Raximov, Quvvatali Ortiqovich, Israil Nurmatovich Tojimamatov, and Hamidullo Rahimjon O'G'Li Xo. "SUNIY NEYRON TARMOQLARNI UMUMIY TASNIFI." *Scientific progress* 4.5 (2023): 99-107.
9. Tojimamatov, Israil, and Shahnoza Ahmataliyeva. "Berilganlarni markazlashgan tarzda boshqarish tamoyillari." *Академические исследования в современной науке* 4.21 (2025): 59-64.
10. Tojimamatov, I., & Adxamova, C. (2025). AMALIY TIZIMLARDA BERILGANLAR BAZASINI BOSHQARISH TIZIMLARI O'RNII. *Академические исследования в современной науке*, 4(21), 77-82.
11. Tojimamatov, I., & Xolmurod o'g, A. O. H. (2025, May). SQL SERVERDA CHEKLASHLAR. In *CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY* (Vol. 1, No. 1, pp. 409-413).
12. Tojimamatov, I. N., & Iminova, G. I. (2025). BERILGANLARNI MARKAZLASHGAN TARZDA BOSHQARISH PRINSIPLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ*, (62-4 (том 1)).